UO‘K 1751 82.0 821.533

MOTIV KOMPONENTLARI TAHLILI

D.A. Azizova

Maqolada manfaatli nikoh motivi komponentlari – subyekt, obyekt va harakatning badiiy asarda variatsiyalanishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, manfaatli nikoh motivi invariantini tiplarga ajratish kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, 20–30-yillar o‘zbek adabiyotidagi manfaatli nikoh motivi obyekti muammosi “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon” romanlaridagi motiv tadqiqi misolida ko‘rib chiqilgan. Manfaatli nikoh motivining mazkur davrdagi invariant va variantlari semasiga oid fikr va xulosalar berilgan.

***Kalit so‘zlar**: syujet motivi, invariant, variant, predikat, fe’l nisbatlari, subyekt, obyekt, qahramon psixologiyasi.*

В статье раскрыты компоненты мотива брака по расчёту: вариация субъекта, объекта, движения в художественном произведении, их специфические особенности, разделение инварианта мотива брака по расчёту на виды и др. Также на примере исследования мотива брака по расчёту рассмотрена проблема объекта брака по расчёту в романах “Минувшие дни”, “Ночь и день”, “Священная кровь”. Приводятся мнения и выводы относительно семы инварианта и варианта мотива брака по расчёту в данный период.

Ключевые слова: *сюжетный мотив, инвариант, вариант, предикат, глагольные соотношения, субъект, объект, психология героя.*

Adabiyotshunos N.M.Vedernikova motivning majburiy elementlari sifatida quyidagilarni keltiradi: *harakatni amalga oshiruvchi shaxs* (subyekt), *belgi yoki qahramon tomonidan bajariladigan harakat, harakat yo‘naltirilgan obyekt, harakat joyi.* [1. B. 58]. Manfaatli nikoh syujet motivining ham asosiy komponentlari *subyekt*, *obyekt* va *harakat* bo‘lib, harakat joyi va zamoni mazkur uchlikda hamma vaqt mavjuddir. Motiv nazariyasiga bag‘ishlangan ishlarda “*subyekt – obyekt – harakat*”ning qay biri belgilovchi maqomda ekani masalasi bahsli, turfa yondashuvlar kuzatiladi. E.M.Meletinskiy motiv tuzilishini jumla (hukm) tuzilishiga o‘xshatib, motivdagi aktant (argument)lar harakatga bog‘liq ekanini, ularning soni va xarakteri bevosita predikatdan o‘sib chiqishini ta’kidlaydi. S.Y.Neklyudov esa “motiv predikatining ma’nosi, asosan, barqaror, xarakterli dalillar – uning subyekti (belgi) va obyekti bilan belgilanadi”, deb hisoblaydi. E’tibor berilsa, Meletinskiy motiv komponentlaridan harakatning belgilovchi funksiyasini, Neklyudov esa obyekt va subyektning predikatga nisbatan erkin o‘zgaruvchan xususiyatini urg‘ulaydi. Ikki olimning nazariy qarashlari farqlansa-da, bir-birini to‘ldirib, motiv komponentlari tahlilida universallik kasb etadi. Funksional jihatdan harakat (predikat) motiv elementlari nisbatini yoritishda yetakchilik qiladi, obyekt va subyektning soni, xarakteri esa harakat semasiga tobelanib, uning nisbatan “barqaror”ligini ta’minlaydi, natijada motivning “yadro” (adabiy-badiiy kontekstga tegishli) qismi (invariant), asosan, predikatda saqlanadi. Predikatdan farqli ravishda, subyekt va obyekt o‘zgaruvchan bo‘lib, variatsiyalanish xarakteriga ega va ijtimoiy-psixologik kontekst xususiyatlarini ko‘proq o‘ziga singdirishga moyil bo‘ladi. Shu bois, badiiy asarda (adabiy davr kontekstida) predikat turg‘un bo‘lgani holda, subyekt va obyekt variatsiyalari xilma-xildir. Predikatning nisbatan “barqaror” – turg‘unlik xususiyati bir necha asar yoki muayyan adabiy davrdagi invariant haqida xulosa chiqarishda, subyekt, obyekt – “xarakterli dalillar” esa – ma’lum motivning bir adabiy-badiiy asardagi aniq bitta variatsiyasi tadqiqida qo‘l keladi. Subyekt va obyektning soni, xarakteri predikatdan anglashilishi ularning tamoman predikatga tobelanishini bildirmaydi, albatta. Motivning mazkur uch komponenti butun bir sistema yanglig‘ ma’lum bitta semani ifodalash uchun o‘zaro birikadi. Ikkinchi tomondan, mustaqil ravishda o‘z shakli va mazmuniga ega bo‘ladi.

Garchi, predikat nisbatan barqaror bo‘lsa-da, ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar ta’sirida unda ham (subyekt va obyektga nisbatan olganda uzoq muddatda bo‘lsa-da) variatsiyalanish kuzatiladi, bu esa yangi invariant yoki, umuman, yangi bir motivning paydo bo‘lishiga olib keladi. Zero, “Ijodkor sxemani, formulani adabiy-badiiy kontekstdan oladi, motivning transformatsiyasi, o‘zgarishga uchrashi esa ijtimoiy-psixologik kontekst ta’sirida ro‘y beradi. Motivning o‘zgarmas, turg‘un tomoni adabiy-madaniy kontekstga, transformatsiyasi ijtimoiy-psixologik kontekstga tegishli” [4. B. 88].

Tilshunos olim A.Nurmonov predikatlarning grammatik valentliklarini ifodalashda nisbat shakllarining ahamiyatini urg‘ulab, “qaysi nisbat shaklida ekaniga ko‘ra subyektning predikat aks ettirgan harakat va holatga munosabati ham turlicha bo‘ladi” [3. B. 354], deb yozadi. Olim fikricha, predikatning subyekt (o‘z o‘rnida, obyekt) valentligiga ishora qilishi nisbat shakllari vositasida ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, yangi o‘zbek nasridagi *manfaatli nikoh motivi* invariantlari predikatini nisbat shakllari vositasida quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1) qahramon uyla**n**di (turmushga chiqdi) (subyekt+predikat);

2) qahramon turmushga ber**il**di (uylantir**il**di) (obyekt+predikat);

qahramonni uyl**a**di (turmushga berdi) (obyekt+ predikat);

3) qahramonlar turmush qu**rish**di (subyekt+obyekt+predikat).

Mazkur motiv komponentlari, ularning sxemadagi o‘rni, semantikasi adabiy-badiiy asarlarda turlicha. Quyida mazkur tiplarga oid motiv invariantlarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi tipda predikat o‘zlik nisbat shaklida bo‘lib, subyekt va obyekt struktura va mazmunan bir-biriga muvofiq keladi. Predikatning semantik agensi, ya’ni predikat aks ettirgan harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs – subyekt holatida, predikat aks ettirgan harakat ta’siriga uchragan predmet esa obyekt holatidadir. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – nikohlanuvchi qahramon (Said); qahramon tomonidan bajariladigan harakat – uylanish; harakat yo‘naltirilgan obyekt – nikohlanuvchi qahramon Manzura; harakat joyi – Toshkent;

Personaj farovon hayot ilinjida amaldorning qiziga uylandi.

Ikkinchi tipda predikat majhul nisbat shakli bilan ifodalanib, u aks ettirgan harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs, ya’ni agens obyekt holatida, harakatni yuzaga chiqarayotgan subyekt esa, odatda, birdan ortiq bo‘ladi. Bunda qahramon tomonidan bajariladigan harakat – nikoh (turmushga chiqish yoki uylanish), lekin uni amalga oshirayotgan, boshqacha aytganda, manfaatli harakat subyekti nikohlanuvchilar emas, balki o‘zga personajlardir. Rejalashtirilgan manfaatli nikoh ixtiyoriy emas, majburiy tarzda amalga oshib, tabiiyki, nikohlanayotganlar manfaatdan yiroq. Ular manfaatli nikohda “harakat qiluvchi” emas, “harakat ishtirokchisi” xolos. D.Quronov “Qor qo‘ynida lola” hikoyasini struktural tahlil qilib, nikohlanuvchi shaxslardan biri – kelinning nikoh subyekti emas, “obyekt”i ekanini qayd etadi: “…holbuki bu ish subyektning ixtiyoridan tashqari sodir bo‘ldi, ayni paytda Cho‘lpon qizning otasini ham subyekt sifatida talqin qilmoqchi, unigina ayblamoqchi emas. Demak, kesimning majhul nisbat fe’li bilan ifodalanishi haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Bunday qilinsa, Sharofatxon ish-harakatning (nikoh, turmushga chiqishning – *D.A.*) subyekti emas, obyektiga aylanadi, formal jihatdan gap egasiz bo‘lib qoladi” [2. B. 61].

“O‘tkan kunlar” romanida harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt)lar – O‘zbek Oyim, Olimponsodboshi, Yusufbek hoji, Qutidor (aslida Otabek va Zaynab bo‘lishi zarur edi, ammo ikkisi ham ixtiyorsiz, obyekt maqomida qoladi); qahramon tomonidan bajariladigan harakat – uylantirildi; harakat yo‘naltirilgan obyekt – Zaynab, Otabek; harakat joyi – Yusufbek hoji xonadoni, Toshkent. Predikatning nisbat shaklida ifodalanishi quyidagicha: *Otabek O‘zbek oyimning orzu-havasi sabab Yusufbek hoji, qaynotasi Mirzakarim qutidor tomonidan Zaynabga* ***uylantirildi;*** *Olimponsodboshining yaxshi joyga quda bo‘lish orzusida Zaynab Otabekka* ***turmushga berildi.***

Yangi o‘zbek adabiyotining ilk bosqichlarida mazkur tip keng ishlangan. “Kecha va kunduz”, “Mehrobdan chayon” romanlarining manfaatli nikoh motivi tahlilida ham yuqoridagicha ifodani keltirish mumkin:

“Kecha va kunduz” romanida: *Zebi Posh-shaxon, Xadichaxon va Miryoqubning sa’y-harakati, qolaversa, otasi Razzoq so‘fining johilligi sabab ellik besh yoshlar atrofidagi uch xotinli Akbarali mingboshiga* ***turmushga berildi.***

Mazkur davr romanlarining aksarida nikohlanuvchi kelin “obyekt” holatidaki, motivning mazkur semasi predikatning majhul nisbatdaligidan anglashiladi.

Ikkinchi tipning yana bir ko‘rinishida predikat aniq nisbatda ifodalanadi. Harakatni yuzaga chiqarayotgan subyekt birgina personaj bo‘lib, uning tashabbusi bilan manfaatli nikoh amalga oshadi. Masalan, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – Yormat, qahramon tomonidan bajarilgan harakat – turmushga berildi; harakat yo‘naltirilgan obyekt – nikohlanuvchi qahramon; harakat joyi – Mirzakarimboy xonadoni. *Yormat boy sinf vakili bo`lishga intilishi vajidan Gulnorni qari Mirzakarimboyga* ***turmushga berdi*****.**

Uchinchi tipning predikati birgalik nisbat shaklida ifodalanadi. Bu tipda predikat mazmunan harakatni yuzaga chiqaruvchi predmet (agens)ni ham, harakat ta’siriga uchragan obyektni ham birday ifodalayveradi, natijada tuzilgan nikohda subyekt va obyektning syujetda o‘zaro o‘rin almashib turishi, ikkalasining nisbatan birikuvi kuzatiladi. Masalan, “Sarob” romanida harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – Murodxo‘ja domla, ikkinchi tomondan kuyov – Saidiy; qahramon tomonidan bajariladigan harakat – uylanish; harakat yo‘naltirilgan obyekt – Saidiy uchun Sora, Murodxo‘ja domla uchun Saidiy; harakat joyi – Murodxo‘ja domla xonadoni.

Manfaatli nikoh motivining ushbu variantini “*Murodxo‘ja domla taklifi bilan xunuk, tasqara Soraxon va aqlli, salohiyatli Saidiy* ***turmush qurishdi***”, shaklida ifodalash mumkin.

Romandagi ikkinchi – Muxtorxon va Munisxonning nikohi ham manfaatli bo‘lib, bunda harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – Salimxon, Munisxon; qahramon tomonidan bajariladigan harakat –turmushga chiqish; harakat yo‘naltirilgan obyekt – Munisxon; harakat joyi – Salimxon xonadoni.

“*Salimxon tashabbusi bilan chiroyli, zamonasining aqlli qizi Munisxon va ko‘rksiz Muxtorxon turmush qur****ish****di*”.

“Umid” romanida: “*O‘z manfaatidan boshqa narsani o‘ylamaydigan professor Salimxon Obidiy tashabbusi bilan axloqan buzuq Jannat va sofdil yigit Umid* ***turmush qurishdi***”.

“Osmonning ustuni” romanida: “*Boylik va yuqori martabaga o‘ch Poshsha xolaning xiylasi sabab Lali va Yigitali* ***turmush qurishdi***”.

Albatta, maqsadimiz motiv komponentlarini aniqlash va ularni tasniflashdangina iborat emas. Motiv komponentlari tasnifi va tahlili syujetdagi bir-biriga bog‘liq motivlar, ularning o‘zaro munosabati, personajning “harakatlanishi” yoki “harakatsizligi” semantikasi badiiy asar g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini atroflicha anglash va shu asosda talqin qilishga imkon beradi.

Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov “O‘tkan kunlar” romanidagi ilk uchrashuv motiviga to‘xtalar ekan, motivning syujetdagi turtki maqomini e’tirof etsa-da, “ariq bo‘yidagi ikki yosh uchrashuvi”ni G‘arb adabiyotidagi ilk uchrashuv motivi bilan “tarkibdosh” emas deb biladi [3. B. 156]. Ya’ni mazkur hodisa ilk uchrashuv motivining aynan o‘zi emas, degan to‘xtamga keladi. “Sha’riy nikoh va baxtiyor ma’shuqaning “siz o‘shami” kalimasidan so‘ng “O‘tkan kunlar” qahramonlarining chin ma’nodagi “ilk uchrashuvi”, saodatli kunlari boshlanadi”. Olim nazdida, ilk uchrashuv “ariq bo‘yida”gi uchrashuv emas, Otabek va Kumushning sha’riy nikohidir. Shu bois, ariq bo‘yidagi uchrashuv haqida “… uchrashuvning real syujetga bevosita aloqasi yo‘q (u syujet tarkibidan tushirib qoldirilganda ham roman yutqazmaydi). Ayni holatning muallif tomonidan yashirilishi, keyinchalik, real o‘quvchining real talablarini hisobga olib, izoh tarzida berilishi ham shundan” [3. B. 156] deb biladi. Bizningcha, ariq bo‘yidagi uchrashuvni “real o‘quvchining real talablari” bilan kiritib o‘tilgan unsur emas, balki butun asar konsepsiyasini to‘liq anglashda muhim funksiya bajaruvchi syujet motivi sifatida baholash maqbul. Qolaversa, mazkur motivni tushirib qoldirish syujetdagi motiv bloklarining o‘zaro bog‘liqlik halqasini uzib qo‘yadi. Shunga ko‘ra, “ariq bo‘yidagi” uchrashuv aynan ikki yoshning ilk da’fa bir-birini ko‘rgani va ushbu uchrashuvdan so‘ng qolgan barcha voqealar sodir bo‘lganini hisobga olish va “ariq bo‘yidagi uchrashuv”ni roman syujetidagi ilk uchrashuv motivi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Mazkur uchrashuvning syujetda kechiktirib berilishi “o‘quvchining ijodiy faolligini oshiradi, uni qahramonlar ruhiyatiga yaqinlashtiradi, asarning jozibasi-yu ta’sir kuchini oshiradi” [2. B. 168]. Otabek “ariq bo‘yidagi “malak”ka uylanayotganidan xabardor (bu Hasanaliga berilgan “qaysi qiziga” savolidan anglashiladi). Shu bois, unda ziddiyat kuzatilmaydi. Ya’ni kattalar tomonidan bajarilgan

amal qahramon tuyg‘ulari bilan ustma-ust tushadi. Bundan farqli ravishda Kumushning kuyov kim ekanidan mutlaqo xabari yo‘q. O‘quvchi uchun ham uning ruhiy iztiroblari manbasi hali noma’lum. Shu sababli qahramon bilan birga kuyinadi, uning haq-huquqsizligi, erksizligini yurakdan his qiladi. Personajning joriy vaziyatdagi ruhiy holati ariq bo‘yidagi uchrashuvning sir tutilishi hisobiga to‘laroq mazmun kasb etib, qahramon va muhit konfliktini yorqinroq tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga, ilk uchrashuv motivining ma’lum muddatga yashirilishi kutilayotgan nikohda kelinning “obyekt” ekanini ko‘rsatadi. Buni bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan ariq bo‘yidagi ilk uchrashuv va nikoh motivlari komponentlarini o‘zaro qiyoslash orqali asoslash mumkin.

Harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – Otabek va Kumush; qahramon tomonidan bajariladigan harakat – uchrashuv; harakat yo‘naltirilgan obyekt – Otabek uchun Kumush, Kumush uchun esa Otabek; harakat joyi – ariq bo‘yi;

Ushbu motiv eng qisqa gap shaklida ifodalansa, “*Otabek va Kumush tasodifan ariq bo‘yida uchrashib qolishdi*” shaklida berilishi mantiqan to‘g‘ri. Mazkur motiv yuqorida sanalgan motiv tiplaridan uchinchi tipga mos keladi. Ya’ni harakatlanayotgan va harakatni amalga oshirayotgan subyektlar motiv tasnifida bir-biriga muvofiq, subyekt (Otabek va Kumush) va obyekt (Kumushga nisbatan Otabek, Otabekka nisbatan Kumush) bir-biriga erkin ko‘chib turadi. Shu bois, motiv predikati “uchrashib qolishdi” shaklida berilaveradi. Motivning uzviy davomi bo‘lgan nikohda harakatlanayotgan va harakatni amalga oshirayotgan personajlar tamomila ikkiga ajralib ketadiki (Harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – Hasanali (bilvosita Ziyo shohichi), Mirzakarim qutidor; belgi yoki qahramon tomonidan bajariladigan harakat – turmushga berildi; harakat yo‘naltirilgan obyekt – Kumush (Otabek); harakat joyi – Mirzakarim qutidor xonadoni). Endi motiv predikatini “Otabek va Kumush **turmush qurishdi**” shaklida berish asardagi nikoh motivi semasini bir tomonlama tushunish, talqin qilish ehtimolini yuzaga keltiradi. Chunki Otabek va Kumush syujet motivida harakatni yuzaga keltirayotgan subyektlar emas. Shu bois, nikoh sxemasida katta avlodning harakati, kelin va kuyovning esa “harakatsizligi” qayd etilishi zarur. Ya’ni, “Otabek ma’naviy otasi Hasanali tomonidan **uylantirildi**” yoki “Kumush otasi Mirzakarimboy tomonidan **turmushga berildi**”. Muhimi, ushbu nikoh motivida subyekt va obyektning tamoman ikkiga ajralishi Otabekning ikkinchi uylanishi – manfaatli nikohga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishidir. Zero, birinchi nikohda katta avlod syujetda harakat subyekti, turmush qurayotganlar “obyekt” bo‘lgani kabi, ikkinchi – Otabek va Zaynab nikohida ham ayni shu holat takrorlanadi. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ikkala nikoh ham ayni davr “me’yor” sifatida baholagan urf-odatlar mahsulidir. Personajlarning syujetda harakatlanishi ham ayni shu mantiq asosida, faqat muallif bir nikoh (Otabek va Kumush)ni sevishgan qalblarni bog‘lovchi “kutilmagan baxt”, ikkinchisi (Otabek va Zaynab)ni esa shaxs erkini bo‘g‘uvchi muhit “illati” sifatida talqin etadi.

M.Baxtinning katta dialog nazariyasiga ko’ra, bir adabiy davrda yaratilgan badiiy asarlar bir-birini mazmunan to‘ldirib, davr, jamiyat, kishilar ruhiyati haqida keng badiiy informatsiya beradi. Qolaversa, “…ma’lum vaqt oralig‘ida mavjud ijtimoiy-madaniy sharoitda kechuvchi adabiy jarayon ham nisbiy butunlik, ayni hol shu davrda yaratilgan asarlarning o‘zaro dialogik aloqasini muqarrar qilib qo‘yadi” [3. B. 4]. Muayyan bir adabiy davrda yaratilgan asarlarning umumiy va xususiy jihatlari namoyishi optimal ravishda motivlarda namoyon bo‘ladi. “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon” romanlarida manfaatli nikoh motivi, personajlarning nikohdan oldingi va keyingi holati, voqealar rivoji va boshqa syujet motivlaridagi o‘zaro tipik o‘xshashliklarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Sevgi → nikoh → obyektning nikohni barbod qiluvchi subyektga aylanishi → zaharlash → o‘lim → nikohning barbod bo‘lishi.

Otabek va Kumushning sevgisi → Zaynab (ixtiyorsiz bo‘lsa-da, keyinda rozi, ko‘ngan) va Otabek (majburiy) → Zaynabning Kumushni zaharlashi → o‘lim → ikkala nikohning ham barbod bo‘lishi.

Zebi va O‘lmasjon sevgisi → Akbarali (ixtiyoriy) va Zebi (majburiy)ning nikohi → kundosh – Poshshaxon tomonidan “obyekt”ning zaharlanishi → (zaharlash natijasi subyekt kutganidek emas) → o‘lim → nikohning barbod bo‘lishi.

“Qutlug‘ qon” romanida asar problematikasidagi boy-kambag‘al zidligi sxemaning shaklini birmuncha o‘zgartiradi. Bu esa bevosita badiiy mazmunda ham aks etadi.

Sevgi → nikoh → zaharlanish → o‘lim → nikohning barbod bo‘lishi.

Yo‘lchi va Gulnor sevgisi – Gulnor (ixtiyorsiz) va Mirzakarimboy (ixtiyoriy) nikohi → (obyektning nikohni barbod qiluvchi subyektga aylanish halqasi tushib qoladi, syujetda qahramon obyektlikni anglab yetmaydi. Nikohni boshqa bir personaj boylik ilinjida barbod qiladi) Salimxonning Gulnorni zaharlashi → o‘lim → nikohning barbod bo‘lishi.

Yuqoridagi misollardan ayon bo‘ladiki, manfaatli nikoh motivining syujetda reallashishi motiv subyekti bilan, barbod bo‘lishi esa “obyekt” maqomidagi personajning isyoni va halokati bilan bog‘liq tarzda kechadi.

Qahramon ruhiyatidagi “isyon – itoat” halqasidan qay biri yetakchilik qilishi uni bir o‘rinda itoatkor qiz (obyekt)ga, syujetning boshqa bir chizig‘ida isyonkor (nikohni barbod qiluvchi subyekt)ga aylantiradi. Bu, o‘z navbatida, motiv harakat semasiga ta’sir etadi. Garchi ko‘nganlik xususiyati yuzada qalqib tursa-da, qizlar ruhiyatida kontrastlilik (isyon-itoat) doim mavjud edi. Masalan, Kumushning ichki monologiga e’tibor berilsa, qarama-qarshilik yaqqol ko‘rinadi:

“*Ularning qizlari yolg‘iz, demak, Kumush erga beriladir… Tushunarlik gap emas* (qahramonda ikkilanish, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni anglashga urinish).

Erga kim tegadir? – Kumush. (taftish – ritorik so’roq)

Kumushbibi kuyavni yoqturadimi yo‘qmi? Bu to‘g‘rida uning fikrini bilish kerak emasmi? (isyon)

So‘zlash ham kerak emas, bildirish ham (itoat).

Nega?(isyon)

Chunki odat shul! Kumush ota-ona yoqtirg‘an kishiga rozi bo‘lish uchun majbur!” (to‘liq itoat) [1. B. 48].

20–30-yillar o‘zbek adabiyotida manfaatli nikoh motivi variatsiyalaridagi nikohlanuvchi kelin holatini quyidagicha ifodalash mumkin.

1.Erksizlik; 2.Nikohda “obyektlilik”; 3.Qahramon tomonidan “obyektlik”ning anglanganligi; shu o‘rinda sxema ikkiga ajraladi, ya’ni personaj o‘zining haqiqiy maqomi – “obyekt”ligini anglamasligi ham mumkin: 3.1 Anglamasdan shunchaki ko‘nish; 3.2. Anglagan holda unga ko‘nish; (Ba’zi personajlarda ushbu holat davomiy bo‘lib, quyidagi vaziyatlar ularda kuzatilmaydi): 4. Obyektlikka qarshi isyon; 4.1.Nisbatan passiv isyon, qisqa muddatli; 4.2. Radikal va davomiy isyon.

Ta’kidlash kerakki, motiv syujetdan farqlangani holda, uning bir uzvi, shunday ekan, motiv va syujet butun va qism munosabatiga kirishib, tahlilda bir-birini taqozo etadi. Faqat muayyan motiv tadqiqida syujetga yondosh tarzda syujet chizig‘ining ahamiyati ham yuqori. Chunki, syujet kompozitsiya bilan teng kelmasa-da, asardagi voqealar tizimini yaxlit qamrab olib, muayyan harakat-holat-vaziyat-qahramon haqida nisbatan tugal axborot beradi. Syujet chizig‘i esa, muayyan motivdagi qahramon situatsiyasi, harakati yoki harakatsizligi semantikasi, keyingi motivlarga qanday bog‘lanishi, mazmunga ta’siri haqida xususiy – muayyan bir motiv doirasida xulosalar chiqarishga imkon beradi. D.Quronov “Xushro‘y va Zaynab suhbati syujet nuqtayi nazaridan Zaynabning ko‘zini ochadi, lekin kompozitsiya nuqtayi nazaridan Kumushning harakatlari xuddi Xushro‘yniki kabi”, deb yozadi. “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon” kabi romanlar kontekstida olib qaralsa, dialogik aloqa mazmun doirasi yanada kengayadi. Ya’ni Xushro‘yning Zaynabga aytgan gaplari (“… Balki ixtiyor va orzularing bo‘lgandir – biroq uni hech kim maydonda ko‘rmas edi. Shuning uchun tizgining oying bilan dadangning qo‘lida, boshqacha aytkanda, ularning tuyaga ortqan yuki, kimga sotsa, qayerga jo‘natsa ixtiyorsiz eding”) [1. B. 363] singlisigagina emas, sanalgan romanlardagi ayol personajlarning bariga tegishli. Manfaatli nikoh motivining yuzaga kelishi yoki ehtimoliy nikoh daragi kelinning oilada (jamiyatda) o‘rni mavjud emasligi, uning shunchaki “narsa” maqomida ekanini ko’rsatadi. Nikoh sodir bo‘lishi kutilayotgan vaziyatda ota hal qiluvchi qaror qabul qilsa, nikohlanayotgan qiz voqealarning shunchaki “kuzatuvchi”si, ya’ni “obyekt”dir. Oftoboyim, O‘zbek oyim, Qumribush, Gulsumbibi, ya’ni onalar, obyektlikni qabul qilgan, unga ko‘ngan, vaqtida – o‘z nikohida subyekt emas, “obyekt” bo‘lgani haqiqatga yaqin. Qumribish Razzoq so‘fining tilini kaldiratishga majbur etishi yoki O‘zbek oyim o‘z fikrini Yusufbek hojiga o‘tkazishi qisman o‘z “men”larini

namoyon qilishga urinish, desa bo‘ladi. Onalardagi “obyekt”lik qizlarining bo‘lajak nikohi arafasida, ayniqsa, muhim funksiya bajaradi. Ularning ko‘nuvchanligi, otalarning buni me’yor sifatida qabul qilishi qizning ham alal-oqibat ixtiyorsiz nikohga rozi bo‘lishini ta’minlaydi. Kumush, Zaynab, Poshshaxon, Xadichaxon, Sultonxon, Gulnor, Zebi – mazkur personajlarda farqli bo‘lsa-da, sovchilikdan keyingi voqealar rivojida ruhiy qiynoq va ko‘nish sxemasi mohiyatan bir xil. Erksizlik, nikohda obyektlilik ularning bariga tegishli. Zebi va Gulnor ruhiyatida otaga nisbatan qo‘rquv, itoat, onaga nisbatan esa achinish va hamdardlik ustuvor bo‘lib, ular syujet rivojida o‘zlarining “obyektlik” maqomini anglab yetmaydi. Kumush, Zaynab, Poshshaxon, Sultonxon, Xadichaxonlar esa o‘zlarining “obyekt”ligini anglab yetadi. Shu sababli, ularda halqalar zanjiri birmuncha uzayadi. Syujet liniyasida obyektlikning anglanishi va ruhiyatda sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar har bir personajning individual, ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib variatsiyalanadi.

Personaj o‘zining asl maqomi, ya`ni shunchaki “narsa” ekanligini anglagan, o‘zini-da aldab ketolmagan fursatda “obyektlik”dan voz kechishga jazm etadiki, endi u avvalgi ota-ona tomonidan kimgadir berilgan “narsa” yoki qurbon emas, balki qalbida norozilik tuyayotgan, atrofdagilarni o‘z hayotidagi baxtsizlik sababchisi sifatida ko‘rayotgan shaxsga aylanadi. Xushro‘yning Zaynab ko‘zini ochishi, Otabekning dushmanlarni mahv etgach, Mirzakarimboy va Kumushga xat yozib, haqiqatni anglatishi yoki Poshshaxonning og‘ringan nafsiga davo izlagan fursati “obyektlik” anglangan nuqta sifatida belgilanishi mumkin. Psixologik o‘zgarish personajni syujetda **harakatlanuvchi** qahramonga o‘zgartiradi. Ayni shu nuqtadan qahramon harakatning “obyekti” emas, nikohni barbod qilishga urinayotgan subyekt sifatida harakatlanishni boshlaydi. Kumushning Toshkentga borishi va u yerda qolishidan yagona maqsad – Zaynabni Otabek oilasidan chiqarish. Faqat bu ishni u hech kimga, ayniqsa, Zaynabga bildirmay amalga oshirish payida. Uning xatti-harakatlari mohiyatan “Kecha va kunduz”dagi Poshshaxonning kundoshi Sultonxonni mahv etish uchun Zebini olib berish harakatiga o‘xshaydi. Xadichaxon Poshshaxon bilan til biriktirib, Zebini Akbarali mingboshiga olib berish, Sultonxon esa xiyonat ko‘chasiga kirib, dushmanlarini zimdan kuydirish bilangina cheklanadi. Xushro‘y va Nuri obrazlarida ham “obyektlik”ka isyon mavjud, faqat ularning “isyon”i tayyor xarakter sabab yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, mazkur personajlarda shaxs dramasi mavjud emas.

“Obyektlik”ka qarshi isyonning eng xarakterli va chigal ko‘rinishi Zaynab va Poshshaxon obrazlarida kuzatiladi. Bular o‘ziga dushman deb bilgan tarafni butunlay mahv etishga qasd qilishi bilan yuqoridagi personajlardan ajralib turadi.

Xadichaxon va Sultonxon Poshshaxonga nisbatan oilada birmuncha baxt topgan. Biri “men o‘zim xohlab tekkanman, yaxshi yashadim”, deb bilsa, birining Zebi kelgungacha “erka qayliq” bo‘lgani ma`lum. Kundoshlariga nisbatan baxtsiz yashayotganiga ishongan (o‘zini ishontirgan) [4. B. 210–211] Poshshaxon o‘zgalarga qaraganda “obyektlik”ni mudhishroq shaklda anglaydi va bunga qarshi isyonning ham shunga monand bo‘lishi tabiiy. Xushro‘yning singlisi tan olishdan qochayotgan haqiqatlar (“…rohatini buzaversang ering sani qo‘yar”, “qo‘lingdan nima keladi?”)ni ochiq, dalillar bilan aytishi, qolaversa, Kumushning rejalagan maqsadi amalga oshayotgani, Zaynab joriy vaziyatda qo‘lidan hech narsa kelmaydigan “obyekt” ekanini yaqqol ko‘rsatib qo‘yadi. “Zaynabning tusi shu choqg‘acha ko‘rilmagan ravishda o‘zgarib ketdi. Negadir tinmay oqib turg‘an ko‘z yoshisi ham quridi va tovushida ham hanuz eshitilmagan keskin bir ohang bor edi. – Esimni kiritdingiz, opa…” [1. B. 365]. Personaj ruhiyatidagi o‘zgarishning asosiy manbai – o‘zining “obyekt” ekanini anglashi. Kumush va Sultonxondan farqli ravishda Zaynab va Poshshaxonda “obyektlik” maqomining anglanishi agressiv ravishda kechadi, bu esa yakunda har ikkisining qotiliga aylanishiga olib keladi. Zaynabdagi qahr-g‘azab Kumushga qaratilsa-da, uning zamirida butun oila, jamiyat, muhitga nisbatan isyon bor edi. Tor muhitning itoatkor ayoli sifatida Zaynabdagi isyon shaxsiy g‘arazdan uyog‘iga o‘tmay qoldi. Personaj o‘z fojiasiga sababchi sifatida Kumushnigina idrok etdi, natijada o‘zi kabi yana bir muhit qurbonini vujudga keltirdi. Ayni shu holat Kumush, Poshshaxon, Xadichaxon, Sultonxonlar uchun ham xos bo‘lib, erksizlik, ixtiyorsizlik oqibatida vu-

judga kelgan oila, undagi ziddiyatlar, umuman olganda, biqiq muhit qurbon tipidagi ayollarni yo qurbon shaklida davom etuvchi, yoki ta`qibchi shaxsga aylantirdi. “Qurbon – hakam – jazolovchi” uchligida sanalgan ayollarning hech biri hakam maqomiga ko‘tarilmadi, faqat “qurbon – jazolovchi” halqasida aylanaverdi.

Xulosa qilinsa, motivning tiplarga ajralishini mutlaqlashtirish, unga universal hodisa sifatida qarash fikridan yiroqmiz. Zero, har bir “adabiy-badiiy va ijtimoiy-psixologik kontekst ta’sirida motivning variatsiyalanishi” yangi tipni yuzaga chiqarishi mumkin. Faqat motivning umumiy va xususiy jihatlarini hisobga olgan holda tiplarga ajratish – syujetdagi motiv bloklari (kompleksi)dan anglashiluvchi mazmunni keng va atroflicha tushunish, shu asosda talqin qilish imkonini kengaytiradi. Va faqat kompozitsion tafakkur natijasida anglanishi mumkin bo‘lgan badiiy konsepsiyaning yuzaga chiqishiga ko‘mak beradi. “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon” romanlarida manfaatli nikoh motivi mazmun, struktura, personajlar sistemasi va ularning funksiyalari, syujetni rivojlantiruvchi motivlar nuqtayi nazaridan bir qancha umumiy nuqtalarga ega. Manfaatli nikohda bo‘lajak kelinlarning faqat “obyekt” maqomida ekani nikoh semasida adolatsizlik, shaxs erkining bo‘g‘ilishi kabi ijtimoiy masalalarni badiiy talqin qilish imkonini berdi.

Adabiyotlar:

1. *Qodiriy A*. O‘tkan kunlar. – Tashkent: Sharq, 2004. – 365 b.
2. *Ведерникова Н.М.* Мотив и сюжет в волшебной сказке // Филологические науки, 1970. – № 2. 57–65.
3. *Quronov D.* Adabiyot nazaryasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya – Ziyo, 2020. –310 b.
4. *Қуронов Д* . Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.
5. *Қуронов Д.* Талқин имконлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 88 б.
6. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдли, 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 416 b.
7. *Умуров Ҳ.* Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 150 б.
8. *Jo‘raqulov U.* Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. –Tashkent: G‘.G‘ulom nashriyoti NMIU, 2015. – 356 b.
9. *Sheraliyeva M.* Monomif strukturasi va Erkin A’zam asarlarining syujet qurilishi // Adabiy meros, 2022. – № 2. – B. 88–94.
10. Адабиёт назарияси. II томлик. 1-том. /М.К.Нурмуҳаммедов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.

ANALYSIS OF MOTIVE COMPONENTS

D. Azizova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 93-100.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: Plot motif, invariant, variant, predicate, verb ratios, subject, object, charakter’s psychology.

The main components of the plot motif that we are studying are subject, object and action, and the place and time of action are always present in this trinity. In works devoted to the theory of motives, the question of which of the “subject – object – action” is in determining status is disputed, various approaches are observed.

It is worth noting that Meletinsky emphasizes the determining function of the action from the motive components, and Neklyudov emphasizes the freely variable nature of the object and subject in relation to the predicate. Although the theoretical views of the two scientists are different, they complement each other and gain universality in the analysis of motive components. Functionally, the action (predicate) takes the lead in clarifying the ratio of elements of the motive, and the number and character of the object and subject depend on the scheme of the action, ensuring its relative “stableness”, as a result, the “core” part (belonging to the literary-artistic context) of the motive (invariant), mainly , stored in the predicate. Unlike the predicate, the subject and the object are variable, have the character of variation and tend to absorb more features of the socio-psychological

context. Therefore, while the predicate is constant in a work of art (in the context of a literary period), subject and object variations are diverse. The relatively "stable" – stability feature of the predicate is useful in drawing conclusions about the invariance of several works or a certain literary period, and the subject, object – "characteristic evidence" – in the study of one specific variation of a certain motif in one literary-artistic work.

According to A.Nurmonov's view, the predicate of the invariants of the interest motive of marriage in the new Uzbek prose can be divided into the following types by means of ratio forms:

1) the hero got married (married) (subject + predicate);

2) the hero was married (married) (object + predicate);

married the hero (object + predicate);

3) the characters got married (subject+object+predicate).

In the plot motif, action is in the leading position, therefore, the characters "acting" or "participating" in it and their psychological situation (motivation) are considered important. It should be noted that the motive is different from the plot, it is a part of it, so the motive and the plot enter into the relation of whole and part and clarify each other in the analysis. Only in the study of a specific motive, the importance of the plot line is high.

In the Uzbek literature of the 1920s and 1930s, the realization of the motive of beneficial marriage in the plot is related to the subject of the motive, and the failure of this motive is related to the rebellion or destruction of the character in the status of "object".

References:

1. Kadiri, A. (2004) O'tkan kunlar [Gone days]. Tashkent: Sharq.

2. Vedernikova, N.M. (1970) Motiv i syuzhet v volshebnoj skazke [Motive and plot in a fairy tale]. *Filologicheskie nauki*. No 2. Pp. 57-65.

3. Kuranov, D. (2020) Adabiyot nazaryasi asoslari.[Fundameltans of artistic creativity] – Tashkent: Innovation – Ziyo.

4. Kuranov, D. (2004). *Cho'lpon nasri poetikasi* [Poetics of Cholpan's prose]. Tashkent: Sharq.

5. Kuranov, D. (2015) *Talqin imkonlari* [Interpretation possibilities]. Tashkent: Turon zamin ziyo.

6. Nurmonov, A. (2012) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. In 3 volumes. Vol.1. Tashkent: Akademnashr.

7. Umurov, H. (1983) *Badiiy psixologizm va hozirgi o`zbek romanchiligi* [Artistic psychologism and current Uzbek Romanianism]. Tashkent: Fan.

8. Dzhorakulov, U. (2015) *Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr.* Xronotop [Issues of theoretical poetics: Author. Genre. Chronotope]. Tashkent: G'.G'ulom nashriyoti NMIU.

9. Sheraliyeva, M. (2002) Monomif strukturasi va Erkin A'zam asarlarining syujet qurilishi [Monomyth structure and plot construction of Erkin A'zam's works]. *Adabiy meros*. No 2. Pp. 88-94.

10. Nurmukhammedov, M.K. (ed.) (1978) *Adabiyot nazaryasi* [Theory of literature]. In 2 volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma'lumot:

AZIZOVA Dilobar Abdujalil qizi – Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: dilobarazizova@gmail.com